

**I.Ergashev - Bank moliya akademiyasi 2-kurs magistranti**  
**INVESTMENT OPPORTUNITIES IN THE INTEGRATION OF**  
**UZBEKISTAN INTO THE WORLD CAPITAL MARKET**

**I. Ergashev**-master of the 2nd year of the Academy of Finance of the Bank

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahon kapital bozorining mohiyati, asosiy ko'rsatkichlari va unda mamlakatlar ulushlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Investorlar huquqlarini himoya qilish maqsadida aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar, sudlarga da'vo arizalari hamda vakolatli davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli ta'sir choralar ko'rish yuzasidan fikrlar bayon qilingan. O'zbekiston Respublikasining jahon kapital bozoriga kirishi va bu jarayonni tezlashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan. O'zbekiston rezidentlari va norezidentlari tomonidan barcha turdagи qimmatli qog'ozlar, jumladan, xorijiy emitentlar aksiyalarini sotib olishdagi to'siqlarni bartaraf etish maqsadida ushbu xizmatning investitsiya vositachilarini tomonidan ko'rsatilishini nazarda tutuvchi tartib ishlab chiqilishi bo'yicha nazariy ma'lumotlar o'rinn olgan.

**Kalit so'zlar:** Jahon kapital bozori, fond birjalar, pul kapitali, qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar savdosi, korxona va firmalarning jahon bozoridagi ishtiroki, integratsiyalashuv, jahon bozori.

**Annotation:** this article presents information on the essence of the world capital market, its main indicators and the shares of countries in it. In order to protect the rights of investors, opinions were expressed on mandatory instructions for implementation in relation to Joint-Stock Companies, claims to courts and, in cooperation with competent state bodies and law enforcement agencies, on the implementation of appropriate measures of influence in the manner prescribed by

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

*law. The directions of the Republic of Uzbekistan's entry into the world capital market and acceleration of this process have been analyzed. Theoretical data on the development of a procedure by residents and non-residents of Uzbekistan that provides for the provision of this service by investment intermediaries in order to eliminate obstacles to the purchase of all types of securities, including shares of foreign issuers, is included.*

**Keywords:** *world capital market, stock exchanges, monetary Capital, Securities, bond trading, participation of enterprises and firms in the world market, integration, world market.*

Mamlakatimiz jahon kapitali bozoriga, birinchi navbatda, uning investitsion segmentiga integratsiyalashib, katta muvaffaqiyatga erishishi uchun, avvalo, hozirgi jahon xo'jalik tizimi va uning ayrim tarkibiy elementlari rivojlanishining qonuniyatlari va tendensiyalarini batafsil o'rghanish kerak. Xalqaro valyuta fondi (XVF) mutaxassislarining tahliliga ko'ra, XXI asrning yaqin 15–20 yilda jahon iqtisodiyoti globallashuvining kuchayishi iqtisodiyot rivojlanishining asosiy tendensiyasi bo'ladi. Bu jarayon XX asrning oxirida boshlangan edi. Mutaxassislar bu fenomenni «tovarlar, xizmatlar va xalqaro kapital oqimlari transchegaraviy tranzaksiyalari hajmi va xilma-xilligi oshib borishi natijasi, shuningdek, texnologiyalar o'zaro aloqadorligi tufayli butun dunyo mamlakatlari iqtisodiy o'zaro bog'liqligining kuchayishi» deb ta'rifladilar. SHuning uchun mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti bozor transformatsiyasi va jahon xo'jalik aloqalari tizimida integratsiyalashuv bosqichini o'tash jarayonida, bozor islohotlari tufayli boshqa mamlakatlar bilan faol savdo, transport, moliyaviy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni amalga oshirmoqda. U endilikda zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning murakkab tuzilmasiga kirib bormoqda. Bu munosabatlar har bir milliy iqtisodiyot uchun aniq samaralar keltiradi. SHuningdek, u jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi ham mumkin. 2008 yilda ro'y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bunga misol bo'la oladi. SHu nuqtai nazardan ham, ushbu global iqtisodiy tizim qonuniyatlari va uning yanada rivojlanish tendensiyalarini bilish O'zbekiston

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

milliy iqtisodiyoti uchun juda zarurdir. Har qanday dasturlar, uning jahon iqtisodiy makoniga integratsiyalashuvi strategiyasini ishlab chiqishning zaruriy shart-sharoitlari bo'lib, global iqtisodiy tizim qonuniyatlari va uning rivojlanishi tendensiyalari inobatga olinishi kerak. Iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarning transport tarmog'ini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazish maqsadida xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltiriladigan uzoq muddatli chet el investitsiyalari birinchi darajali ahamiyatga ega. Xalqaro investitsiyalarning ushbu turi kapital import qiladigan mamlakatni qarzdor qilib qo'ymaydi. SHuningdek, milliy iqtisodiyotga yo'naltiriladigan investitsiyalar umumiy hajmiga juda katta hissa qo'shib, mahsulotlar eksportini rivojlantirish va importga qaramlikni kamaytirishga ko'maklashadi. Eng muhimi, samarali kapital importi o'zi bilan ilg'or texnika va texnologiyani, yuqori darajali menejment va marketing tajribasini, jahon miqyosidagi keng amaliy aloqalarni ham olib keladi. Natijada kapital import qiladigan mamlakat iqtisodiy rivojini tezlashtiradi. Uning eksport salohiyati kengayadi. Jhon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi tezlashadi. Bundan kapitalni olib ketadigan kompaniyalar ham manfaatdor bo'ladilar. Chunki shu yo'l bilan yangi savdo bozorlarini o'zlashtirib, tobora ko'proq foyda oladilar. SHunga muvofiq, o'z mamlakatlari davlat byudjetlari daromadlarini ko'paytiradilar. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, yaqin o'n yillar ichida bevosita chet el investitsiyalari shaklidagi xalqaro kapital oqimlari hajmi oshadi. Ularning hajmi jadal oshib kelmoqda va 2010 yilda 1,8 trillion AQSH dollarini tashkil etdi (2009 yilga nisbatan 18 foiz ko'paydi). Keyingi o'n yillikda xorijiy kapitalga talab uning taklifiga qaraganda ancha oshib bormoqda. Yuqoridagi mulohazalarni hisobga olgan holda, bashorat qilinadigan davrda bevosita chet el investitsiyalarini oluvchilar sifatida rivojlangan mamlakatlar ulushi muntazam ravishda kamayib boradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar, hozirgi o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar ulushi esa oshib boradi. YAngi sharoitda ularning o'z jamg'armalari yetarli emasligi ayon bo'lib, ular faol ravishda chet el kapitalidan foydalanmoqdalar. Bu ayniqsa, Osiyo va Afrikada jadal ravishda oshmoqda. Markaziy va SHarqiylar yevropa mamlakatlari

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

milliy iqtisodiyotining yaxshilanishi ham vaziyatni o'zgartira boshladi. Bu holat mamlakatimizda ham ro'y bera boshladi. Malakatimizning rivojlanayotgan mintaqalardagi mamlakatlar bilan raqobatda chet el kapitalini oluvchi sifatida egallaydigan raqobatchilik mavqelari osha bordi. Mamlakatimizda 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p – 9 milliard 700 million AQSH dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi. Bu yalpi ichki mahsulotning 25 foizini tashkil etgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni. 2000 yil 26 may, 77-II-son. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
2. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 2019 yil 25 dekabr, O'RQ-598-son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3 apreldagi «Koronavirus pandemiysi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5978-sonli Farmoni.//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.10.2021-y., 06/21/6324/0970- son, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son
4. Ataniyazov J.X. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. Iqtisod-moliya. T.: 2020.
5. Ataniyazov J.X. Alimardonov E.D. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti. T.: 2021 y.
6. Alfaro L. Gains from Foreign Direct Investment: Macro and Micro Approaches. World Bank Economic Review (2016). P. 1–14.
7. Bernard, A., Jensen, J., Redding, S., Schott, P. Firms in international trade // Journal of Economic Perspectives. 2021, 3. P.105-130.
8. Edwards S. Financial Openness, Currency Crises, and output Losses in Strengthening Global Financial Markets, ed. by S. Edwards and M. Garcia. Chicago, 2016.
9. Frederic S. Mishkin., Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Pearson. – 9th ed. 2018. – 808 p.

10. Jaworek M., Kuzel M. (2015). Transnational Corporations in the World Economy: Formation, Development, and Present Position. Copernican Journal of Finance & Accounting, 4(1), P. 55-70.

1.